

QATAR DAVLATIDA VIJDON ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATI

Abdreymov Nurbol

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom huquqi yo'nalashi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qatar davlatining diniy e'tiqod va vijdon erkinligiga oid huquqiy asoslari, amaliyoti va cheklovleri tahlil qilingan. Qatar jamiyatining ko'p millatli va ko'p dinli tarkibi e'tiborga olinib, hukumatning diniy bag'rikenglik siyosati, jumladan, boshqa din vakillariga yopiq joylarda diniy ibodatlarni o'tkazishga ruxsat berish tajribasi ham ko'rsatib o'tilgan. Biroq, shariat qonunlariga muvofiq, ochiq diniy targ'ibot va missionerlik faoliyati qat'iy taqilangani qayd etiladi. Ushbu maqola Qatar davlatining vijdon erkinligi sohasidagi yondashuvlarini tahlil qilish va ularning cheklovleri haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Qatar, Konstitutsiya, vijdon erkinligi, diniy e'tiqod, inson huquqlari, shariat, diniy bag'rikenglik, cheklovlar, missionerlik, dinlararo munosabatlar.*

Abstract. This article analyzes the legal framework, practice, and restrictions of the State of Qatar regarding freedom of religion and conscience. It highlights the government's policy of religious tolerance, which includes the unique experience of allowing representatives of other religions to conduct religious prayers in closed places, in the context of Qatar's multinational and multi-religious society. However, it also notes that in accordance with Sharia law, open religious propaganda and missionary activities are strictly prohibited. The article's goal is to provide a comprehensive understanding of Qatar's religious freedom policies, including their unique aspects and restrictions.

Keywords: *Qatar, Constitution, freedom of conscience, religious belief, human rights, Islamic law, religious tolerance, restrictions on missionary work, interfaith relations.*

Qatar, Fors ko'rfazi mintaqasidagi boy va dinamik davlat sifatida, diniy e'tiqod va vijdon erkinligiga oid masalalarga katta e'tibor qaratadi. Qatar davlatining konstitutsiyasi (2004-yilda qabul qilingan) mamlakatdagi siyosiy, fuqorolik va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, unda erkinlikka oid qator moddalar mavjud [1]. Uning konstitutsiyasi va qonunlari shariat qoidalariga asoslangan bo'lsada, vijdon erkinligini muayyan darajada kafolatlaydi. Ushbu maqolada Qatar davlatida vijdon erkinligining huquqiy asoslari, amaliyoti va cheklovleri ko'rib chiqiladi. Qatar

davlati Konstitutsiyasining qator moddalarida, jumladan; 36, 37, 39, 45, 47, 48, 50-moddalarida insonlarning huquqlari va erkinligi kafolatlab qo'yilgan [2].

Qatar Konstitutsiyasining 50-moddasida quyidagicha qayd etilgan:

حرية العبادة مكفولة للجميع، وفقاً للقانون، ومقتضيات حماية النظام العام والأداب العامة yani: “Din va e'tiqod erkinligi kafolatlanadi, agar bu jamoat tartibiga zid bo'lmasa yoki qonunlarni buzmasa.”

Bu modda har bir shaxsga o'z dini va e'tiqodiga amal qilish huquqini beradi. Konstitutsiya nafaqat musulmon aholini, balki boshqa e'tiqodga mansub kishilarni ham e'tiborga olgan holda, ularning diniy ibodatlarini amalga oshirish erkinligini ta'minlashni maqsad qiladi [3].

Shuningdek, Qatar qonunlari boshqa din vakillarining o'z diniy faoliyatlarini cheklangan joylarda amalga oshirishiga ruxsat beradi. Masalan, Doha shahrida bir nechta cherkov faoliyat yuritadi, bu esa boshqa konfessiyalarga nisbatan bag'rikeng munosabatni namoyon etadi. Bundan tashqari Qatar konstitutsiyasining 36 - الحرية الشخصية مكفولة. ولا يجوز القبض على إنسان أو حبسه أو تقييشه أو تحديد إقامته أو تقييد حريته في الإقامة أو التنقل إلا وفق أحكام القانون.

ولا يعرض أي إنسان للتعذيب أو للمعاملة الحاطنة بالكرامة، ويعتبر التعذيب جريمة يعاقب عليها القانون

Yani: “Har bir shaxsning shaxsiy erkinligi kafolatlanadi. Hech kim qiyonoqqa solinishi, noinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaga duchor qilinishi mumkin emas. Shaxsni o'zboshimchalik bilan hibsga olish, qamoqqa olish yoki huquqiy asossiz cheklovlar taqiqlanadi.

Qatar asosan musulmon davlat bo'lib, aholisining aksariyati sunniy islom mazhabiga e'tiqod qiladi. Shu bilan birga, mamlakatda turli millat va din vakillari, jumladan, nasroniyalar, hindular, buddistlar va boshqa dinlar vakillari yashaydi. Hukumat ushbu e'tiqodiy guruhlarga o'z diniy marosimlarini yopiq joylarda o'tkazishga ruxsat beradi. Nasroniy jamoalar uchun tashkil etilgan ibodat joylari buni tasdiqlaydi. Biroq ochiq diniy targ'ibot va missionerlik faoliyatları qat'iy taqiqlangan. Bu cheklov mamlakatning shariatga asoslangan qonunlaridan kelib chiqadi.

Qatar davlatida vijdon erkinligi diniy bag'rikenglik tamoyillari bilan bir qatorda shariat me'yorlari va jamoat tartib-qoidalari bilan chegaralangan [4]. Asosiy cheklovlar quyidagilardan iborat:

1. Missionerlik faoliyati taqiqlangan: Boshqa din vakillariga o'z dinini targ'ib qilish qat'iy man etiladi.
2. Dinsizlikni targ'ib qilish: Dinsizlik yoki ateizm ochiqchasiga targ'ib qilinishi jinoyat hisoblanadi.
3. Shariat qoidalariiga zid harakatlar: Shariatga zid bo'lgan har qanday e'tiqodiy amallar yoki g'oyalar jamoat xavfsizligi nuqtai nazaridan taqiqlanadi.

Xulosa

Qatar davlatida vijdon erkinligi huquqiy jihatdan kafolatlangan bo‘lsa-da, uning amaliyoti shariat qoidalari va milliy qonunchilik doirasida cheklangan. Hukumat mamlakatdagi diniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashga intilsa-da, jamiyatning diniy an’analari va shariat tamoyillariga moslashuv zarurati mavjud. Qatarning konstitutsiyasida vijdon erkinligiga oid bir qator kafolatlar keltirilgan, xususan:

50-modda: "Din va e’tiqod erkinligi kafolatlanadi, agar bu jamoat tartibiga zid bo‘lmasa yoki qonunlarni buzmasa."

36-modda: Shaxsiy erkinlik va inson qadr-qimmatining himoya qilinishi.

Bundan tashqari, davlat boshqa din vakillariga o‘z diniy faoliyatlarini amalga oshirish uchun maxsus muassasalar (masalan, cherkovlar) tashkil etishga ruxsat beradi. Bu esa Qatar jamiyatida diniy bag‘rikenglik va ko‘p millatli tuzumning muhim qismidir.

Biroq, mamlakatda diniy erkinlik quyidagi cheklovlar bilan bog‘liq:

1. Missionerlik faoliyati taqiqlangan: Ochiq diniy targ‘ibot qat’iyan man etilgan.
2. Dinsizlik yoki ateizm targ‘iboti: Bu harakatlar qonunchilik tomonidan jinoyat deb belgilangan.
3. Shariatga zid harakatlar va targ‘ibot: Islom qonunlariga zid bo‘lgan g‘oyalar yoki amaliyotlar taqiqlangan, lekin bu davlatda yashovchi turli diniy guruhlar uchun diniy bag‘rikenglik Konstitutsiya tomonidan kafolatlangan. Shu sababli, Qatar vijdon erkinligi masalasida diniy va milliy an’analarning uyg‘unlashgan modelini taklif qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rasmiy sayt. <https://www.diwan.gov.qa/about-qatar/constitution>
2. Rasmiy sayt. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations
3. Hamdi M. “Constitutional Guarantees of Freedom of Religion in Gulf Cooperation Council States: A Comparative Analysis”. USA: 2003.
4. Yusuf al-Qaradawi “Shariat va huquq”. M.: Al-Azhar nashriyoti, 2001.
5. <https://www.almeezan.qa>